

**QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 3-son)**



**FILOLOGIYA**

**PHILOLOGY**

## **INGLIZ BADIY DISKURSIDAGI MUALLIF MUSHOHADASINING SEMANTIK-STILISTIK TUZILISHI**

*Xamroyeva Shaxzoda Ikromovna  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili  
va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.  
E-mail: [shkhamroeva@gmail.com](mailto:shkhamroeva@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Badiy diskursdagi muallif mushohadasi murakkab semantik-stilistik hodisa bo‘lib, asarni qabul qilish va talqin qilish uslubiga ta’sir qiladi. U o‘quvchiga voqealarni o‘z mustaqil nuqtai nazaridan qarashga, asarning ma’nosini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Muallif mushohadasining xilma-xil uslubiy vositalaridan foydalanish asarni stilistik jihatdan boyitadi va uning o‘quvchiga ta’sirini kuchaytiradi.

**Kalit so‘zlar:** semantik tuzilish, stilistik vositalar, ingliz badiy diskursi, muallif mushohadasi

**Аннотация.** Размышление автора в художественном дискурсе представляет собой сложное семантико-стилистическое явление, влияющее на способ восприятия и интерпретации произведения. Оно позволяет читателю взглянуть на события со своей независимой точки зрения, глубже понять смысл произведения. Использование различных стилистических средств авторского вывода стилистически обогащает произведение и усиливает его воздействие на читателя.

**Ключевые слова:** смысловая структура, стилистические приёмы, английский художественный дискурс, авторское размышление.

**Abstract.** The mediation of the author is a complex semantic-stylistic phenomenon, which affects the method of reception and interpretation of the work. It allows the reader to look at events from his own independent point of view, to understand the meaning of the work more deeply. The use of various stylistic means of the author’s mediation enriches the work stylistically and enhances its impact on the reader.

**Key words:** semantic structure, stylistic tools, English literary discourse, author’s mediation

**KIRISH.** Badiy asarlarda badiy tasvir vositalaridan keng qo‘llaniladi. Badiy tasvir vositalari haqida S.Sultonsaidova, O’.SHaripovaning “O‘zbek tili stilistikasi” fanidan yozilgan o‘quv qo‘llanmasida batafsil yoritilgan. Ushbu qo‘llanmada badiy tasvir vositalari “Sintaktik figuralar” va “Tropolar” deb ikki guruhga ajratilgan va ularning har biri haqida batafsil

ma’lumotlar keltirilgan. Qo‘llanmada anafora, epifora, takror, sintaktik parallelizm, antiteza, gradatsiya, ritorik so‘roq kabi sintaktik figuralar, metafora metonimoya, sinekdoxa, o‘xshatish, epitet, ironiya, antifraza, sarkazm, perifraz, mubolag‘a, litota, alligoriya kabi troplar haqida misollar bilan ma’lumotlar berilgan. Badiiy tasvir vositalarining bir turi bu – epitet. J.Lapasovning “Badiiy matn va lisoniy tahlil” qo‘llanmasida Epitetga shunday izoh bergan: “Epitet grekcha so‘z bo‘lib, izohlovchi demakdir. U o‘zbek tilida sifatlash ham deb yurutiladi. Epitet poetic aniqlovchi bo‘lib, narsa, hodisa, tushunchaning biror hususiyati, belgisini alohida baholab ko‘rsatish uchun o‘shanday so‘zlar oldidan qo‘shimcha tarzda keltiriladigan so‘zdir”. Aristotelning “Ritorika” asarida ko‘plab uslubga oid fikrlar mavjud. Uning qarashlariga ko‘ra asarda bayonning odatiy holatdan chetlashishi ham musofirning o‘zga yurtda ko‘rgan narsalaridan taajjubga va hayratga tushganidek tasavvur uyg‘otadi, chunki noodatiy narsadan hayratlanish va taajjublanish ham yoqimlidir. Aristotel o‘xshatishni ham o‘ziga xos metafora deb baholaydi. Uningcha, ularning farqi juda oz. O‘xshatishdan birgina kabi so‘zi chiqarib tashlansa, metafora yuzaga keladi. O‘xshatish, metafora va epitetlardan ham meyorida foydalanish zarurligi, ularni suiste’mol qilish uslubni g‘alizlashtirishi ham qayd etib o‘tilgan. Badiiy tasvir vositalari goh ritorik figuralar, goh sintaktik figuralar, goh stilistik figuralar tarzida taqdim etiladi. Keng ma’noda bu tushunchalar doirasiga ko‘chimlar ham, stilistik figuralar ham kiritiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Shuningdek, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagи voqeа-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo’llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiat, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma’no nozikliklari bilan to‘yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma’no talqini berishning yo‘llari juda xilmoxildir. Bunga “umumtil iborasi zamiridagi ma’noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma’nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin”.[2] Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B. Yo‘ldoshev tomonidan keng o‘rganilgan.[3] Ammo Mirmuhsin asarlaridagi iboralar, hatto boshqa jihatlari ham shu vaqtga qadar lingvopoetik tahlilga olinmagan. Ingliz badiiy adabiyoti tarixida muallifning mushohadasi muhim semantik-stilistik hodisa bo‘lib, asarni qabul qilish, talqin qilish va uning umumiyligi ta’sirini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu hodisa, muallif o‘zining fikr va his-tuyg‘ularini to‘liq ifodalash o‘rniga, voqealarni ob’ektiv tarzda bayon qilish, obrazlarni mustaqil rivojlantirish yoki hikoya oqimiga ko‘proq erkinlik berish orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada ingliz badiiy diskursidagi muallif mushohadasi ning semantik-stilistik tuzilishi tahlil qilinadi. Muallif mushohadasi turli adabiy uslub va texnikalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, hikoya

qiluvchi (narrator)ning o‘rni va roli muhim ahamiyatga ega. Agar hikoya qiluvchi voqealarni sovuqqonlik bilan bayon qiluvchi, o‘zining shaxsiy fikr va his-tuyg‘ularini ifodalashdan chekinadigan vosita bo‘lsa, bu muallifning chekinishini ko‘rsatadi. Masalan, janrlarning rivojlanishiga, ayniqsa, realizm va modernizm davrlariga qarab muallif mushohadasining o‘ziga xos xususiyatlari kuzatilgan. Realizm davrida muallif, voqealarni ob‘ektiv bayon qilishga, tafsilotlarga e‘tibor berishga intiladi, ammo shu bilan birga, hikoya qiluvchining mavjudligi seziladi, u o‘zining kuzatuvlari va tahlillari bilan hikoyaning oqimiga ta’sir qiladi. Modernizm davrida esa, muallifning mushohadasi yanada chuqurroq bo‘ladi, ko‘pincha hikoya qiluvchi mutlaqo yo‘qoladi yoki uning mavjudligi juda kam seziladi. Muallif mushohadasi asarning ma’nosini va talqini jihatidan bir necha semantik o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Birinchidan, u o‘quvchiga voqealar va obrazlarni o‘z mustaqil fikrlash va talqin qilish imkoniyatini beradi. Muallifning o‘z fikrini to‘liq ifodalashi o‘rniga, o‘quvchi asarning ma’nosini o‘zi aniqlashga undaladi. Bu esa asarning ko‘p qirrali va chuqurroq talqinlarini ta’minlaydi. Ikkinchidan, muallif mushohadasi voqealarga nisbatan ob‘ektivlikni ta’minlashga yordam beradi, o‘quvchi voqealarga muallifning shaxsiy munosabatidan chetda, mustaqil qarashga imkon beradi.

**NATIJALAR.** Muallif mushohadasi asarning stilistik xususiyatlariga ham ta’sir qiladi. Bu uslubda hikoya tili odatda sodda, ob‘ektiv bo‘ladi, his-tuyg‘ularni ifodalovchi vositalar (masalan, sifotlar, ravish) kam ishlatiladi. Muallifning o‘zi voqealarga aralashmasligi tufayli, hikoya oqimi tezda rivojlanishi mumkin, dialoglar va ichki monologlarga ko‘proq o‘rin beriladi. Shuningdek, muallif mushohadasi tufayli, asarning o‘quvchini qiziqtirishga qaratilgan boshqa stilistik vositalar (masalan, sir, kutilmagan burilishlar) ko‘proq qo’llanishi mumkin.

Ingliz adabiyotida muallif mushohadasi turli yozuvchilarning asarlarida turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, Jan Austenning romanlarida hikoya qiluvchi o‘zining shaxsiy fikrlarini bildirsa ham, voqealarni ob‘ektiv tarzda bayon qilishga harakat qiladi, obrazlarning psixologiyasini chuqur tahlil qilmaydi. Ernest Hemingueyning asarlari esa muallif mushohadasining yanada aniq misollarini namoyish etadi. Uning qisqa, sodda jumlalari, his-tuyg‘ularni bilvosita ifodalash uslubi muallifning voqealarga aralashmasligini ko‘rsatadi. Muallif mushohadasi asar voqealariga nisbatan ob‘ektivlik illyuziyasini yaratadi. Voqealar muallifning shaxsiy munosabati va baholarisiz bayon qilinishi o‘quvchida voqealarga ishonchlilik va haqiqatga yaqinlik hissi uyg‘otadi. Lekin, bu ob‘ektivlik mutlaq emas, chunki muallifning so‘z tanlovi, hikoya uslubi va boshqa stilistik vositalari hali ham ma'lum bir ta’sirga ega. Bunday yondashuvni realizm adabiyotida kuzatish mumkin.

Muallif mushohadasi asarda sodda va ob‘ektiv tilni qo’llash bilan bog‘liq. His-tuyg‘ularni ifodalovchi vositalar kamroq ishlatiladi, jumlalar qisqa va aniq bo‘ladi. Misol sifatida Hemingueyning lakonik uslubini keltirish mumkin. Muallifning mushohadasi ko‘pincha uchinchi shaxs hikoyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu hikoya qiluvchining voqealardagi rolini kamaytiradi va ob‘ektivlik taassurotini kuchaytiradi. Muallif mushohadasi ko‘pincha “show, don’t tell” uslubi bilan bog‘liq. Muallif to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zining fikr va his-tuyg‘ularini bildirish

o‘rniga, voqealarni tasvirlab, o‘quvchiga o‘z xulosalarini chiqarish imkoniyatini beradi. Shuni ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilganlar umumiy tendentsiyalarni aks ettiradi. Har bir asarda muallif mushohadasi turli shakkarda va darajalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Aniqroq tahlil uchun alohida asarlar va yozuvchilarning uslubini ko‘rib chiqish kerak. Shuningdek, ushbu xususiyatlarni o‘rganishda adabiyotshunoslikning turli nazariyalari va yondashuvlaridan foydalanish mumkin (masalan, narratologiya, stilistika).

**XULOSA.** Xulosa qilib aytganda, ingliz badiiy diskursidagi muallif mushohadasi murakkab semantik-stilik hodisa bo‘lib, asarni qabul qilish va talqin qilish uslubiga ta’sir qiladi. U o‘quvchiga voqealarni o‘z mustaqil nuqtai nazaridan qarashga, asarning ma’nosini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Muallif mushohadasining xilma-xil uslubiy vositalaridan foydalanish asarni stilistik jihatdan boyitadi va uning o‘quvchiga ta’sirini kuchaytiradi. Bu uslubning o‘ziga xos xususiyatlarini va zamonaviy adabiyotdagi ahamiyatini to‘liq anglash uchun yanada chuqur tadqiqotlar zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Jakobson R. Language in relation to other communications systems / Jakobson R. // Selected writings. II. Word and language. The Hague : Mouton, 1971. – P. 697 – 710.
2. Шомақсудов А. ва б. Ўша асар. -Б.70.
3. Йулдошев Б. Фразеологик услубият асослари. -Самарқанд, 1999.
4. Myers-Scotton C. Contact linguistics : Bilingual encounters and grammatical outcomes / C. Myers-Scotton. – Oxford : Oxford University Press, 2002. – 168 p.
5. Wardhaugh R. An Introduction to Sociolinguistics / Wardhaugh R. –New York : Blackwell Publishers Ltd, 1992. – 615 p.
6. Wilson D. Linguistic Structure and Inferential Communication / D.Wilson // The 16th International Congress of Linguistics. – Paris, 1997. – P. 16 – 21. 187. Новиков А. И. Семантические расстояния в языке и тексте / А. И. Новиков, Е. И. Ярославцева. – М. : Наука, 1990. – 136 с.
7. Белянин В. П. Психолингвистика / В. П. Белянин. – М. : Изд-во Флинта, 2004. – 32 с.
8. Gozzi, R. A Review of General Semantics Text. / R.A. Gozzi // The Power of Metaphor. 1999/2000. – Vol. 56. – № 4.335.